

3 OYLIK OQ ZOTSIZ KALAMUSHLAR INGICHKA ICHAGI DEVORINING ME'YORIY MORFOMETRIK PARAMETRLARI

Ashirmatov Sherali Nurmuxammatovich

Toshkent davlat stomatologiya institute

Annotatsiya: Ushbu maqolada 3 oylik oq zotsiz kalamushlar ingichka ichagi devoriining me'yoriy morfometrik parametrlari keltirilgan. Bunda Ingichka ichak tutqich bo'limining boshlang'ich, o'rta va oxirgi qismlari devoriy strukturaviy tuzilmalarining morfometrik ko'rsatkichlari batafsil bayon etilgan.

Kalit so'zlar: kalamush, ingichka ichak, ichak tutqich, vorsinkalar, kriptalar.

Tadqiqotning dolzarbligi. Ovqat hazm qilish tizimi deganda glandular shakllanishlari (yirik so'lak bezlari, jigar, o't pufagi, oshqozon osti bezi) bo'lgan ovqat hazm qilish trakti (og'iz, xalqum, qizilo'ngach, oshqozon, ingichka va yo'g'on ichaklar) tushuniladi [1, 2].

Ingichka ichak oshqozon-ichak traktining so'rilish jarayoni kechadigan asosiy qismidir. Ingichka ichak oziq-ovqat tarkibiy qismlarining past molekulyar og'irlikdagi moddalarga asta-sekin yakuniy hazm bo'lishini, so'ngra so'rilishini ta'minlaydi. Ichak, shuningdek, vaqti-vaqti bilan patogenlar ta'sirida bo'lgan bo'shliqdagi dinamik, ammo muvozanatli mikroflorani saqlaydi [3]. Ingichka ichakning me'yoriy morfologik tuzilishini o'rganish bugungi kunda morfologiya bilan patologik anatomiyaning dolzarb muammolaridan biridir.

Tadqiqotning maqsadi tajribada 3 oylik oq zotsiz kalamushlar ingichka ichagi devoriining me'yoriy morfometrik parametrlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot natijalari 3 oylik oq zotsiz kalamushlarda ingichka ichakning tutqich qismining boshlang'ich qismi devorining qalinligi 534,7 mkm dan 821,2 mkm gacha. Eng katta qalinligi tutqich (o'rtacha - $643,5 \pm 3,8$) va tutqichning qarshi qismi (o'rtacha - $537,2 \pm 3,8$ mkm) devorlarga nisbatan lateral devorlarda (o'rtacha - $703,4 \pm 4,2$) joylashgan.

Ingichka ichak tutqich qismining boshlang'ich qismidagi yon devorlarda shilliq qavatning qalinligi (o'rtacha - $647,5 \pm 3,8$ mkm) tutqich shilliq qavatining qalinligidan (o'rtacha $530,2 \pm 3,6$ mkm) va tutqichning qarshi qismi devorlari shilliq qavatining qalinligidan (o'rtacha - $522,0 \pm 3,4$ mkm) 1,4 marta katta.

Shilliq qavatning yuzasi vorsinkalar bilan qoplangan. Ichak vorsinkalari ingichka ichakning bo'shlig'iga erkin chiqib turadigan shilliq qavatning barmoqsimon yoki barg shaklidagi o'simtalaridan hosil bo'ladi. Yon devorlarining vorsinkalari eng uzun (o'rtacha - $547,6 \pm 2,5$ mkm) va barmoqsimon shaklga ega. Ichak tutqich (o'rtacha - $495,8 \pm 2,5$ mkm) va tutqichning qarshi qismi qirrasini (o'rtacha - $428,7 \pm 2,8$ mkm) vorsinkalari bargsimon shaklda yoki keng asosli uchburchak shaklga ega.

Ingichka ichak vorsinkalari epiteliy qatlamining qalinligi 19,8 dan 22,6 mkm gacha, o'rtacha - $21,4 \pm 0,3$ mkm ni tashkil qiladi. Epiteliy hujayralarining yadrosi oval yoki yumaloq shaklda bo'lib, hujayraning bazal qismida joylashgan.

3 oylik kalamushlarning ingichka ichak tutqich qismining boshlang'ich qismidagi vorsinkalari epiteliy qoplamiidagi limfotsitlarning hujayra tarkibini o'rganish shuni ko'rsatdiki, 100 ta epiteliy hujayralarida limfotsitlar soni 7 dan 12 gacha, o'rtacha - $10,2 \pm 0,35$, bu yerda mayda limfotsitlar soni -

5,0±0,2, o'rtacha limfotsitlar soni -2,7±0,18, yirik limfotsitlar soni -2,0±0,12 bo'ladi.

Kriptalar - chuqurchalar, ularning og'zi vorsinkalari orasidagi ichak bo'shlig'iga ochiladi. 3 oylik kalamushlarning ingichka ichagining boshlang'ich qismidagi tutqich qismi kriptalar chuqurligi 34,2 dan 91,5 mkm gacha, chuqurroq kriptalar esa tutqich qismi (o'rtacha -53,5±2,5) va tutqichning qarshi qismi devorlaridagi kriptalarga nisbatan (o'rtacha -52,7±1,9 mkm) yon devorlarda joylashgan (o'rtacha -57,9±2,1 mkm).

Ingichka ichakning tutqich qismining boshlang'ich qismidagi shilliq osti qatlamining qalinligi 14,9 dan 40,5 mkm gacha. Bu qatlam yon devorlarga (o'rtacha -25,7±1,4 mkm) nisbatan tutqichning qarshi qismi (o'rtacha -25,0±1,9 mkm) va tutqich chetida (o'rtacha -25,1±1,3 mkm) yaxshi rivojlangan.

Ingichka ichak tutqich bo'limining boshlang'ich qismi mushak-seroz qavatining aylana bo'ylab qalinligi butun uzunligi bo'ylab bir xil emas (1-rasm). Tutqichning qarshi qismi devoriga (o'rtacha -63,7±1,4 mkm) nisbatan lateral (o'rtacha -64,0±1,1 mkm) va tutqich devorlarida (o'rtacha -63,1±1,3 mkm) aniqroq ifodalanadi.

3 oylik kalamushlarda ingichka ichak tutqich qismining o'rta qismi devori qalinligi 537,1 mkm dan 766,1 mkm gacha o'zgarib turadi. Eng katta qalinlik tutqich (o'rtacha -590,0±2,6 mkm) va tutqichning qarshi qismi (o'rtacha -538,4±2,4 mkm) devorlariga nisbatan lateral devorlarda (o'rtacha -646,8±3,1 mkm) kuzatiladi.

Ingichka ichak tutqich qismining o'rta qismidagi yon devorlari shilliq qavatining qalinligi (o'rtacha -582,7±3,8 mkm) tutqich shilliq qavatining qalinligidan (o'rtacha -535,6±2,6 mkm) va tutqichning qarshi qismi shilliq qavatining qalinligidan (o'rtacha -462,5±3,0 mkm) 1,4 baravar ko'p.

Shilliq qavatda ichak bo'shlig'iga chiqadigan vorsinkalar mavjud.

Ingichka ichakning tutqich qismi devori atrofidagi vorsinkalar balandligi va shakli bir xil emas. Yon devorlari o'rtacha eng uzun -523,6±3,1 mkm va barmoqsimon shaklga ega, tutqich devorida o'rtacha -471,4±2,8 mkm va tutqichning qarshi qismi devorida o'rtacha -424,6±2,4 mkm, barg shaklida yoki keng asosli uchburchak shaklida.

Ingichka ichak vorsinkalari epiteliy qatlamining qalinligi 7 dan 13 mkm gacha, o'rtacha -20,2±0,2 mkm. Epiteliy hujayralarining yadrosi yanada yumaloq shaklga ega va hujayraning bazal qismida joylashgan.

Vorsinkalarning epiteliy qoplamida 100 epiteliy hujayradagi limfotsitlar soni o'rtacha 8 dan 17 gacha -14,5±0,3, mayda limfotsitlar soni -7,5±0,3, o'rtacha limfotsitlar soni -3,2±0,2, yirik limfotsitlar soni -2,5±0,1.


Kriptalar - chuqurchalar, ularning og'zi vorsinkalar orasidagi ichak bo'shlig'iga ochiladi. Ingichka ichak tutqich bo'limining o'rta qismidagi kriptalar chuqurligi 41,9 dan 81,7 mkm gacha, chuqurroq kriptalar esa tutqichga nisbatan (o'rtacha -51,2±1,0 mkm) va tutqichning qarshi qismi (o'rtacha -49,2±1,2 mkm) devorlariga nisbatan yon devorlarda joylashgan (o'rtacha -58,8±1,3 mkm).

3 oylik kalamushlarda ingichka ichak tutqich qismining o'rta qismidagi shilliq osti qavatining qalinligi 20,0 dan 51,8 mkm gacha. Bu qatlam lateral (o'rtacha -20,6±1,4 mkm) devorlarga nisbatan tutqichning qarshi qismi (o'rtacha -20,1±1,2 mkm) va tutqich (o'rtacha -20,7±1,9 mkm) qirralarda ko'proq aniqlanadi.

Yakka sonli limfoid tugunlarning o'lchamlari o'rtacha 80,8 mkm dan 107,2 mkm gacha (94,5±1,3 mkm) bo'lib, ular asosan kichik va o'rta kattalikdagi limfotsitlardan iborat. Yirik limfotsitlar sporadik topiladi. Yakka sondagi tugunlarning shakli asosan yumaloqdir.

Ko'ndalang kesimlardagi guruh limfoid tugunlari aniq belgilangan strukturaviy va funksional zonalarga ega bo'lgan 2-3 tugundan iborat.

Limfoid tugunlar gumbazi ichak bo'shlig'iga kiradi va tepasida bir qavatli silindrsimon epiteliy bilan qoplangan. Limfoid tugunning hujayra tarkibi: 56,1% kichik, 20,1% o'rta, 13,9% yirik limfotsitlardan tashkil topgan.



Rasm 1. 3 oylik kalamushning ingichka ichak devori.

1. Shilliq qavat vorsinkalari (bir qavatli prizmatik epiteliy).
2. Shilliq qavat xususiy plastinkasidagi limfoid follikulari.
3. Shilliq qavati xususiy plastinkasi.
4. Xususiy plastinkada joylashgan bezlar.

3 oylik kalamushlarda ingichka ichak tutqich bo'limining o'rta qismining mushak-seroz qavatining qalinligi aylana bo'ylab o'zgarib turadi (2-rasm). U tutqich (o'rtacha $-58,2 \pm 1,4$ mkm) devorlarga nisbatan lateral (o'rtacha $-58,6 \pm 1,7$ mkm) va tutqichning qarshi qismi (o'rtacha $-58,7 \pm 1,5$ mkm) devorida kattaroqdir.

3 oylik kalamushlarda ingichka ichak tutqich qismining oxirgi qismi devorining qalinligi 454,6 mkm dan 781,1 mkm gacha, eng katta qalinligi tutqich qismi (o'rtacha $-544,3 \pm 4,2$ mkm) va tutqichning qarshi qismi (o'rtacha $-498,8 \pm 4,0$ mkm) devorlariga nisbatan yon devorlarda (o'rtacha $-586,7 \pm 3,8$ mkm) bo'ladi.

Yon devorlarda ingichka ichak tutqich qismining oxirgi qismidagi shilliq qavatning qalinligi (o'rtacha $-540,9 \pm 2,5$ mkm) tutqich shilliq qavatining qalinligidan (o'rtacha $-485,7 \pm 4,3$ mkm) va tutqichning qarshi qismi (o'rtacha $-422,6 \pm 3,7$ mkm) devorlari shilliq qavatining qalinligidan 1,4 marta katta.

Shilliq parda vorsinkalar bilan to'lgan. Yon devorlarining vorsinkalari eng uzuni (o'rtacha $-487,3 \pm 3,5$ mkm) va barmoqsimon shaklga ega. Tutqich qismi (o'rtacha $-453,5 \pm 3,0$ mkm) va tutqichning qarshi qismi qirrasini (o'rtacha $-416,1 \pm 2,8$ mkm) vorsinkalari keng asosga ega.

Kriptalar - ichak shilliq qavatining xususiy plastinkasida joylashgan ichak shilliq qavati epiteliysidagi nayli chuqurchalar. Ingichka ichak tutqich qismining oxirgi qismidagi kriptalar chuqurligi 27,8 dan 65,3 mkm gacha, chuqurroq kriptalar esa tutqichga nisbatan (o'rtacha $-47,7 \pm 2,5$ mkm) va tutqichning qarshi qismi (o'rtacha $-42,8 \pm 2,3$ mkm) devorlaridagi kriptalar chuqurligiga nisbatan yon devorlarda (o'rtacha $-53,7 \pm 1,3$ mkm) joylashgan.

Ingichka ichakning tutqich qismining o'rta qismidagi shilliq osti qavatining qalinligi 13,6 dan 28,2 mkm gacha. Bu qatlam lateral devorlarga (o'rtacha $-19,3 \pm 0,4$ mkm) nisbatan tutqichning qarshi qismi (o'rtacha $-20,1 \pm 0,7$ mkm) va tutqich chetida (o'rtacha $-19,6 \pm 0,5$ mkm) yaxshi rivojlangan.

Ingichka ichak tutqich qismining mushak qavati ichki aylana va tashqi uzunlamasiga yo'nalgan qatlamdan iborat. Ingichka ichak tutqich bo'limining oxirgi qismi mushak-seroz qavatining qalinligi aylana bo'ylab o'zgaradi. U lateral devorlarda (o'rtacha $-50,7 \pm 1,6$ mkm) va tutqichning qarshi qismi (o'rtacha $-50,6 \pm 1,5$ mkm) va tutqich devorlarida ($50,4 \pm 1,1$ mkm) aniqroq ifodalanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Олимова А. З., Шодиев У. М. Репродуктив Ёшдаги эркакларда бепуштлик сабаблари: Бухоро тумани эпидемиологияси //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 499-502.
2. Zokirovna O. A., Abdurasulovich S. B. Ovarian Diseases in Age of Reproductive Women: Dermoid Cyst //ЎТМОИҲ ФАНЛАРДА ИННОВАСИҲА ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 154-161.
3. Olimova A. Z. ECHINOCOCCOSIS OF LIVER OF THREE MONTHLY WHITE RAT //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 462-466.
4. Олимова А. З. Морфологические и морфометрические особенности печени белых беспородных трех месячных крыс после тяжелой черепно-мозговой травмы вызванной экспериментальным путём //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 557-563.
5. Oglu M. Z. M., Zokirovna O. A. МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ И МОРФОМЕТРИЧЕСКИЕ ПАРАМЕТРЫ ПЕЧЕНИ БЕЛЫХ БЕСПОРОДНЫХ КРЫС, ПЕРЕНЕСШИХ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНУЮ ЧЕРЕПНО-МОЗГОВУЮ ТРАВМУ ПОСЛЕ МЕДИКАМЕНТОЗНОЙ КОРРЕКЦИИ //JOURNAL OF BIOMEDICINE AND PRACTICE. – 2023. – Т. 8. – №. 1.
6. Олимова А. З., Турдиев М. Р. БУХОРО ШАҲРИДА МЕЪДА ВА ЎН ИККИ БАРМОҚЛИ ИЧАК ЯРАСИ УЧРАШ ЭПИДЕМИОЛОГИЯСИ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 642-647.
7. Zokirovna O. A. Modern Concepts of Idiopathic Pulmonary Fibrosis //American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 97-101.
8. Zokirovna O. A. Pathology of Precancerous Conditions of the Ovaries //American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 93-96.
9. Зокировна, Олимова Азиза и Тешаев Шухрат Джумаевич. «Морфологические аспекты печени белых беспородных крыс после тяжелой черепно-мозговой травмы, вызванной экспериментально в виде дорожно-транспортного происшествия». *Scholastic: Journal of Natural and Medical Education* 2.2 (2023): 59-62.
10. Zokirovna O. A. Comparative characteristics of the morphological parameters of the liver at different periods of traumatic brain injury //Euro-Asia Conferences. – 2021. – С. 139-142.
11. Zokirovna O. A. Macroand microscopic structure of the liver of threemonthly white rats //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 9. – С. 309-312.
12. Олимова А. З. Частота Встречаемости Миомы Матки У Женщин В Репродуктивном Возрасте //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 551-556.
13. Zokirovna O. A., Abdurasulovich S. B. Ovarian Diseases in Age of Reproductive Women: Dermoid Cyst //ЎТМОИҲ ФАНЛАРДА ИННОВАСИҲА ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 154-161.
14. Zokirovna O. A. Cytological screening of cervical diseases: pap test research in the bukhara regional diagnostic center for the period 2015-2019. – 2022.
15. Zokirovna O. A., PREVALENCE R. M. M. EPIDEMIOLOGY OF CANCER OF THE ORAL CAVITY AND THROAT IN THE BUKHARA REGION //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 545-550.
16. Olimova A. Z. The frequency of occurrence of my uterus In women of reproductive age //JOURNAL OF ADVANCED RESEARCH AND STABILITY (JARS). – 2021. – Т. 1. – №. 06. – С. 551-556.

17. Olimova Aziza Zokirovna. (2023). MODERN PRINCIPLES OF THE EFFECT OF HEMODIALYSIS THERAPY ON HEART RATE. *International Journal of Integrative and Modern Medicine*, 1(1), 80–85. Retrieved from <http://medicaljournals.eu/index.php/IJIMM/article/view/28>
18. Olimova Aziza Zokirovna. (2023). PATHOMORPHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE EPIDIDYMISS UNDER IRRADIATION. *International Journal of Integrative and Modern Medicine*, 1(1), 96–100. Retrieved from <http://medicaljournals.eu/index.php/IJIMM/article/view/31>
19. Olimova Aziza Zokirovna. (2023). THE INCIDENCE OF CANCER OF THE ORAL CAVITY AND PHARYNX IN THE BUKHARA REGION. *International Journal of Integrative and Modern Medicine*, 1(1), 86–89. Retrieved from <http://medicaljournals.eu/index.php/IJIMM/article/view/29>
20. Olimova Aziza Zokirovna. (2023). INFLUENCE OF ALCOHOL INTOXICATION ON THE HEART TISSUE OF RATS IN THE EXPERIMENT. *International Journal of Integrative and Modern Medicine*, 1(1), 90–95. Retrieved from <http://medicaljournals.eu/index.php/IJIMM/article/view/30>
21. Olimova Aziza Zokirovna. (2023). Modern Aspects of the Etiology of Gastric Ulcer and Its Complications. *American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences (2993-2149)*, 1(3), 163–166. Retrieved from <http://grnjournal.us/index.php/AJPMHS/article/view/208>
22. Zokirovna O. A., Jumaevich T. S. Morphological Aspects of the Liver of White Outbred Rats After Severe Traumatic Brain Injury Caused Experimentally in the Form of a Road Accident //Scholastic: Journal of Natural and Medical Education. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 59-62.
23. Aziza Zokirovna Olimova GASTRIC ULCER AND ITS COMPLICATIONS // Scientific progress. 2022. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/gastric-ulcer-and-its-complications> (дата обращения: 28.09.2023).
24. Olimova Aziza Zokirovna. (2022). TECHNIQUE FOR CUTTING BIOPSY AND SURGICAL MATERIAL IN THE PRACTICE OF PATHOLOGICAL ANATOMY AND FORENSIC MEDICINE. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(7), 116–120. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/PSQ59>
25. Zhumayevich N. F., Zokirovna O. A. PATHOMORPHOLOGY OF GASTRIC CANCER //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2022. – С. 330-333.
26. Zokirovna O. A. Epidemiological and Etiological Data of Morphogenesis and Pathomorphology of Congenital Heart Diseases in Children //American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 88-91.